

2-TOM, 11-SON

O'RTA OSIYONING NOYOB VA "QIZIL KITOB"GA KIRITILGAN HAYVONLARI

Andijon davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va iqtisodiy bilim
asoslari yo'nalishi talabasi

Abdusattorova Nafisabonu Anvarjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyo hududida tarqalgan noyob va "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonlar va ularning yo'qolish sabablari, yashash areallari haqida ma'lumot beriladi

Kalit so'zlar: Noyob hayvon, Qizil kitob, fauna, tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi, brokoner,

Kirish: O'rta Osiyo hayvonlarga boyligi va hayvonlarning har xilligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Buning bir nechta sabablari bo'lib birinchidan, ulkan hududi tabiiy sharoitining turli-tumanligi tekisliklardan hamda adir va tog' landshaftlaridan tashkil topganligi, ikkinchidan, turli o'simlik qoplami, o'txor va yirtqich hayvonlarning geografik tarqalishga sabab bo'lgan ulkan tabiiy sharoitidagi tafovutlar ayniqsa, uning tekislik qismi bilan tog'li dismida yaqqol namoyon buladi. Tekislik qismida chalacho'l va cho'larga moslashgan hayvonlar ko'p uchraydi. Binobarin, tekislikdagi hayvonlarda davomli issiq yozga nisbatan sovuq qishga bardosh bera oladigan alomatlar shakllangan. Tog'larda esa yuqoriga ko'tarilgan sari relyefning murakkablashib borishi, haroratning pasayishi, miqdorining ortishi, yozning qishda, qishning sovuq va davomiyligi, o'simlik qoplaminin g qalinlashishi o'z navbatida hayvonlarning o'sha sharoitga moslashgan turlarini xususan sutemizuvchi va yirtqich hayvon hamda qushlar turining ko'p, aksincha, sudralib yuruvchilarning kam bo'lishiga sabab bo'lgan. Ulkan faunasining turli-tumanligi ozod geologik taraqqiyot tarixi davrida tarkib topganligi va boshda hududlarning hayvonlari bilan aloqada bo'lganligiga bogliq. Shu sababli bu yerda endemik hayvonlar bilan birga O'rta Osiyo, hind-himolay, Yevropa-Sibir, Old Osiyo, hattoki Afrika kabi hududlarga xos bo'lgan turlari uchraydi. bugungi kunda mana shunday endemik, noyob va turli sabablarga ko'ra yoqolib borayotgan hayvonlar noqulay sharoit, oziq-ovqat tanqisligi yoki odamlarning ta'siri tufayli qizil kitobga kiritilmoqda. Qizil kitob bu yo'qolib borayotgan yoki yo'qolish xavfida bo'lgan noyob o'simlik va hayvon turlarini qayd qiluvchi davlat hujjati hisoblanadi. Qizil kitobda o'simlik va hayvon turlari sonining kamayishi, areallarining qisqarib borishi sabablari yoritiladi; ularni saqlab qolish uchun tavsiyalar berib boriladi. Ushbu davlat hujjati hisoblangan kitob 1948-yilda tashkil etilgan Tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi kamyob va yo'qolib ketish xavfida bo'lgan o'simlik va hayvon turlarining ro'yxatini tuzish g'oyasini amalga oshirishga kirishdi. Turlarni saqlab qolish bo'yicha maxsus



2-TOM, 11-SON

xalqaro komissiya tuzilib, 1966-yildan boshlab boshqa tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikda xalqaro Qizil kitobning dunyo va alohida mintaqalar florasiga bag'ishlangan nashrlar chop etila boshlandi. O'rta osiyo hududidan bir necha turdagi hayvonlar kiritilgan bo'lib ulardan biri o'rta osiyo cho'l toshbaqasi hisoblanadi. Hozirda toshbaqaning tabiiy yashashi uchun yaroqsiz va o'zlashtirilgan hududlarning umumiy maydoni 300 ming kvadrat kilometrni tashkil etadi. Ta'kidlanishicha, so'nggi 60 yil mobaynida xo'jalik faoliyati yuritilishi natijasida toshbaqaning yashash joylari 1,5 million gektarga qisqarib ketgan. Bugungi kunga kelib mazkur turning tabiiy populyatsiyasini saqlab qolish maqsadida O'zbekiston "Qizil kitob"ining yangi nashriga kiritildi. O'rta Osiyo cho'l toshbaqasi o'tgan asrning birinchi yarmidan boshlab kamayishni boshlagan. Ikkinchi jahon urushi davrida O'rta Osiyo toshbaqasi go'shtidan ko'p miqdorda konservalar tayyorlashda foydalanilgan. 1950—1960-yillarda toshbaqa, asosan, iqtisodiy ehtiyojlar uchun yig'ilgan, biroq ochiq dashtda qishloq xo'jaligi rivojlanishi turlarning yashash joylari va soni sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. O'rta Osiyo cho'l toshbaqasi (*Agrionemys horsfieldii*) zaif, himoyaga muhtoj tur sifatida Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi (TMXI)ning "Qizil ro'yxati"ga kiritilgan. Oxirgi 18 yil davomida qonuniy va noqonuniy ravishda jami 1 254 100 dona O'rta Osiyo cho'l toshbaqasi tabiatdan olingan va eksport qilingan. O'zbekiston "Qizil kitobi"ga va Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi "Qizil ro'yxati"ga to'liq yo'q bo'lib ketish arafasida turgan hayvon sifatida kiritilgan hayvonlardan yana biri qor qoplani hisoblanadi. Bu noyob hayvon G'arbiy Tyan-Shan va Pomir-Oloyda yashaydi. O'zbekistonda ularning soni, turli hisob-kitoblarga ko'ra, 30–50 dan 80–120 atrofida saqlanib qolgan. Biz atrof-muhitda jonzotlar bilan yashashga ko'nikib, ular doim odamlar bilan birga yashaydi, deya yanglish fikr yuritib kelamiz. 2014 yili Butunjahon yovvoyi tabiat jamg'armasi e'lon qilgan hisobotda bayon qilinishicha, 1970 yildan buyon Yer yuzida yovvoyi hayvonlar soni ikki baravar kamaydi. Hozirgi kunda hayvonlarning yo'qolishiga asosiy sabablardan inson omili bo'lib kelmoqda. Shu sabab bilan yo'qolgan hayvonlardan biri Buxoro kiyigi hisoblanadi. Bu hayvonlarning soni 1999 yildayoq 400 boshdan kamayib ketgan. Ularning ko'pi Tojikistonda davom etgan fuqarolik urushi payti halok bo'ldi. Ayni paytda Tojikiston qo'riqxonasida saqlanayotgan noyob kiyiklar 850 boshga yetdi, biroq Zarafshon qo'riqxonasida ular bor-yo'g'i 40 boshni tashkil etadi. Qizil kitobga nafaqat hayvonlar balki noyob qushlar ham kiritiladi bunday qushlardan biri Qichqiriq qush nomi bilan mahalliy aholiga yaxshi tanish bo'lgan tuvaloqlardan biri Chiroyli tuvaloq ham yo'q bo'lib ketishi mumkin. Qush Qozog'istonda «Qizil kitob» ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa-da, boy arab shayxlariga lochin bilan tuvaloqlarni ovlashga ruxsat berilgan hisoblanadi. Berkut yoxud Oltin burgut Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qirg'iy larning eng chiroyli va keng qanotlisi hisoblanadi. U aholi yashash punktlaridan qochadi, halovatda yashashni istaydigan Oltin burgut tashqi ta'sirga o'ta sezuvchan, shahar atrofida ham qo'nim topmaydi. Brakonerlar va urbanizatsiyaning salbiy ta'siridan tashqi, berkutning yo'q bo'lib ketishiga pestitsidlar ham ta'sir qiladi. Berkut asosan kemiruvchilar bilan oziqlanuvchi qirg'iy qushdir hozirda uning tanasi ovqatdan zaharlanishi ko'paymoqda. Shimoliy YevroOsiyoda saqlanib qolgan yagona



2-TOM, 11-SON

noyob tuyoqsiz juft oyoqlilarning vakili qulon ham yovvoyi tabiatda kamayib bormoqda. Xonakilashgan otdan kichikroq qulonlar soatiga 70 kmgacha tezlikda masofani bosib o'tadi. U juda tezkor va o'rtacha 50 km tezlikda chopadi. Markaziy Osiyoning yastangan dashtlarida ular erkin yashaydi. Afsuski, ayni paytda mingdan kam qulonlar mintaqada saqlanib qolgan. Mushuksimonlar oilasiga mansub yirtqich irbisni qor leopardi, deb atash mumkin. Genetik jihatdan u yo'lbarzlarga yaqin, ammo ko'rinishidan leopardga o'xshaydi. U asosan brakonerlar nishoni hisoblanib, bundan tashqari oziq yetishmasligi tufayli halok bo'lmoqda. 2017 yilda irbis Markaziy Osiyoda 7500 bosh qolgani ma'lum qilingan. Insonlar asosan turli mo'ynali kemiruvchi hayvonlardan mo'ynasi uchun ovlashadi. Kemiruvchilarning mayda oziqlar bilan qorin to'qlab yuradigan menzibira sug'uri O'zbekistonning Chotqol, Qozog'istonning Qurama va Qirg'izistonning Talas vodiysida yashashi kuzatilgan. Uning bo'yi 49 sm, dumining uzunligi esa 13,5 sm bo'ladi. Ko'rinishida barcha sug'uridek anatomiyaga ega, ammo quloqlari kalta va mo'ynasi qalin bo'ladi. Ular 5 ming atrofida qolgan. Ba'zan Turkmaniston va Rossiyada uchrab turadigan sayg'oqlar aslida O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston hududlariga xos yovvoyi hayvon hisoblanadi. 2010-15 yillar oralig'ida faqat Qozog'istonda 132 ming sayg'oq halok bo'ldi. Uning qirilib ketayotganiga gemarogik septikemiya qo'zg'atuvchi (pasterelleza) sababchi bo'layotgani bildirilgan. Ular, asosan, muz ostidan ozuqani chiqarolmay, brakonerlar tufayli tuyoqsiz muzni yorolmay, o'lib ketmoqda. Insonlar o'z ehtiyojlari uchun tabiat ne'matlarini qurbon qiladilar. Qum efasi dunyoni eng zaharli ilonlar o'ntaligiga kiradi. O'zbekistonda efani "charxiloni" deb atashadi, ya'ni tarjima qilinsa - "shovqinli ilon". Bu harakatlari bilan efa kobrani eslatadi, u boshini ko'tarib tahdidli turadi, dushmanni to'xtatish uchun. O'tmishda respublikada har yili 3 000 ga yaqin zaharli ilonlar ovlanar edi. Toshkent, va Termizdagi ilonlarni saqlash joylarida edilar, u yerda farmatsevtik sanoat va ilmiy tashkilotlar uchun zahar olinar edi. Shu tufayli qum efa populyatsiyasi keskin kamaygan, va u qizil kitobga kiritilgan.

Xulosa: Hayvonlar tabiatning noyob ne'mati hisoblanadi. Hayvonlar hayotimizning bir qismi hisoblanib yirtqich hayvonlar ham o'txor hayvonlarning ham vazifasi bor. Bugungi kunda insonning ehtiyojlari ularning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Insonlar hayvonlarning foydalaridan turli hil kiyimlar tayyorlashda mo'ynali hayvonlardan, tibbiyot maqsadida ilonlarning zaharlaridan yoki shifobaxsh xususiyatlaridan foydalanishmoqda yokida ko'ngilochar maqsadlarda hayvonlarni ovlab hayvonot bog'lari tashkil qilmoqda. Shu tufayli ularning turi kamayib bormoqda. Biz insonlar hayvonlarni asrashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'rta osiyo tabiiy geografiyasi (191b-201 b) P. Baratov, M. Mamatqulov, A. Rafiqov
2. O'zbekiston SSR Qizil kitobi: Hayvon va o'simliklarning noyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari: 2 jildda. - Toshkent: Fan, 1983. - V. 1: Umurtqalilar. - 128 b.



2-TOM, 11-SON

3.O‘zbekiston SSR Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvon va o‘simliklar turlari: 2 jildda.- Toshkent: Fan, 1984.- V. 2: O‘simliklar. - 151 b.

4.O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik va hayvonlar turlari: 2 jildda.- Toshkent: Chinor ENK, 1998.- 1-jild: O‘simliklar. - 336 b.

5.O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobi: Noyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan o‘simlik va hayvonlar turlari: 2 jildda.- Toshkent: Chinor ENK, 2003.- 2-tom: Hayvonlar. - 238 b.

